

## Respublika yosh olimlar konferensiyasi o'tkazildi

2018-yil 20-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yosh olimlar kengashi, O'zR FA Navoiy bo'limi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Birlashgan kasaba uyushma qo'mitasi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi hamkorlikda "Fan va ta'limni rivojlantirishda yoshlarning o'rni" mavzusida Respublika yosh olimlar ilmiy konferensiyasi bo'lib o'tdi. Unda O'zR FA rahbariyati, ilmiy-tadqiqot muassasalari yetakchi tadqiqotchilari, Yosh olimlar kengashi a'zolari, shuningdek, Termiz, Navoiy viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi yosh izlanuvchilari hamda Rossiya Federatsiyasi "Salyus" kompaniyasi direktori Ivankov Yegor Aleksandrovich ham ishtirok etishdi.



Konferensiya ikki bosqichda - ochilish va plenar (umumiy) yig'ilish hamda ilmiy ma'ruzalar taqdimoti shaklida bo'lib o'tdi. Konferensiya davomida fizika-matematika va texnika, tabiiy, ijtimoiy-gumanitar fanlar hamda qishloq xo'jaligi yo'nalishi bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, ularning dolzarb muammolari va yechimlari haqida bahs-munozaralar olib borildi.

 Konferensiya yakunida yosh tadqiqotchilar turli nominatsiyalar bo'yicha taqdirlandilar.

